

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI**

**FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI**



**5220300 – Arxivshunoslik ta'lif yo'nalishi kunduzgi**

**ta'lif shakli bo'yicha fanlararo**

**YAKUNIY DAVLAT ATTESTASIYASI**

**D A S T U R I**

**Bilim sohasi: 300 000 – Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot**

**Ta'lif sohasi: 220 000 – Jurnalistika va axborot**

**Ta'lif yo'nalishi: 5220300 Arxivshunoslik**

**Farg'ona – 2024**

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 25-avgustdagи 744-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan 5220300 – Arxivshunoslik ta’lim yo‘nalishining DTS, MT hamda o‘quv rejasiga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2009-yil 22-maydagи 160-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan va 2021-yil 10-noyabrdagi 38-2021-son buyrug‘i bilan o‘zgartirish kiritilgan “Oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan ishlab chiqilgan.

Dastur 5220300 – Arxivshunoslik ta’lim yo‘nalishining Umumkasbiy fanlar (2.00) qatoriga kiruvchi O‘zbekistonda davlat muassasalari tarixi (2.01), Jahon arxivlari tarixi (2.03), O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi (2.04) hamda Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti (2.05), shuningdek, Ixtisoslik fanlari (3.00) hisoblanuvchi Raqamlı manbalar va elektron arxiv asoslari (3.01) fanlari majmuini o‘z ichiga olgan bo‘lib, ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fanlararo yakuniy davlat attestersiyasi imtihonlarini topshiruvchilar hamda bitiruv malakaviy ishi himoya qiluvchilar uchun mo‘ljallangan.

**Tuzuvchilar:**

N.O.Alimova	FarDU, O‘zbekiston tarixi kafedrasi mudiri, falsafa doktori, dotsent
G.Farmanova	FarDU, Jahon tarixi kafedrasi mudiri, falsafa doktori
M.H.Isomiddinov	FarDU, Jahon tarixi kafedrasi professori, tarix fanlari doktori, professor
B.A.Usmonov	FarDU, O‘zbekiston tarixi kafedrasi v.b professori, tarix fanlari doktori
R.A.Arslonzoda	FarDU, Jahon tarixi kafedrasi professori v.b, tarix fanlari nomzodi
S.V.Yo‘ldashev	FarDU, O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti, falsafa doktori
O.V.Mahmudov	FarDU, Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, falsafa doktori
R.X.Akbarov	FarDU, O‘zbekiston tarixi kafedrasi katta o‘qituvchisi falsafa doktori
M.F.Rasulov	FarDU, Jahon tarixi kafedrasi dotsenti, falsafa doktori
S.X.Xusanov	FarDU, O‘zbekiston tarixi kafedrasi o‘qituvchisi

**Taqrizchilar:**

A.N.Rasulov	Namangan davlat universiteti tarix kafedrasi professori, tarix fanlari doktori,
S.B.Shadmanova	Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti sharq tarixi kafedrasi mudiri, tarix fanlari doktori, professor

Farg‘ona davlat universiteti kengashining 2024-yil 29-fevraldagи 7-son qarori bilan tasdiqlangan.

Tarix fakultetining 2024-yil 9-fevraldagи 6-son yig‘ilish qarori bilan tasdiqlash uchun tavsiya etilgan.

O‘zbekiston tarixi va Jahon tarixi kafedralalarining 2024-yil 2-fevraldagи 5/1-son navbatdan tashqari birlashgan yig‘ilishida muhokama qilinib, foydalanishga tavsiya etilgan.

## **KIRISH**

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining kelajagi, eng avvalo, chuqur bilimga ega, o‘z kasbining barcha sirlarini mustahkam egallagan va zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalana oladigan avlod qo‘lidadir. Arxiv hujjatlarini saqlash, tiklash va qayta ishlov berish fanini o‘qitishda ham boshqa fanlar kabi zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish o‘ta muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu o‘quv majmuada arxivshunoslik fanini yandicha o‘qitish uslublari, ulardan foydalanish usullari ko‘rsatib berilgan.

Arxivshunoslik yo‘nalishi o‘quv rejasiga kiritilgan fanlarni o‘rganishdan asosiy maqsad arxiv ishini chuqur o‘rganish, uning rivojlanish tendensiyalarini belgilash va shu asosda arxivlar faoliyatining yanada takomillashib borishini ta’minlashdir.

Ushbu asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda, arxiv hujjatlarini saqlash, tiklash va qayta ishlov berish fani o‘z oldiga quydagи vazifalarni qo‘yadi. Birinchidan, arxivlar va arxiv ishi tarixini tadqiq etish, oldingi davrlarda bu borada orttirilgan ijobiy tajribadan foydalanish. Ikkinchidan, arxivlar faoliyatini o‘rganish asosida arxiv ishi rivojlanishining asosiy yo‘nalishlarini belgilash. Uchinchidan, arxiv ishini yanada yaxshilashga qaratilgan ilmiy xulosalar va ishlanmalar ishlab chiqish.

Mazkur dastur arxivshunoslik ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilarining taxsil olish mobaynida mutaxassislik va ixtisoslik fanlarini o‘qib o‘zlashtirganlik darajasini aniqlash uchun o‘tkaziladigan Yakuniy Davlat attestatsiyasi sinovlari uchun ishlab chiqilgan.

2023-2024 o‘quv yili yakunida bitiruvchilardan Farg‘ona davlat universiteti kengashining 2023-yil 29-avgustdagi 1-son bilan tasdiqlangan ishchi o‘quv rejadagi umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan o‘tkaziladi.

## UMUMIY QOIDALAR

1. Mazkur dastur 5220300 – Arxivshunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fanlararo (umumkasbiy va ixtisoslik) yakuniy davlat attestatsiya (keyingi o‘rinlarda – YDA) sinovi topshiruvchilar hamda bitiruv malakaviy ishi himoya (keyingi o‘rinlarda – BMI himoyasi) qiluvchilar uchun mo‘ljallangan.

2. Joriy o‘quv yilida ta’lim yo‘nalishida YDA o‘quv rejalariga muvofiq quyidagi turlardagi attestatsiya sinovlaridan iborat:

- **ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fanlararo (umumkasbiy va ixtisoslik) yakuniy davlat attestatsiya sinovi;**
- **bitiruv malakaviy ish himoyasi.**

3. Yakuniy davlat attestatsiyasini umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan (fanlararo) yakuniy davlat attestatsiya sinovi yoki bitiruv malakaviy ishi himoyasi shaklida o‘tkazilishi bitiruvchilarning iqtidori, xohishi va ta’lim xususiyatidan kelib chiqqan holda oliy ta’lim muassasasi Kengashi qarori bilan belgilanganadi.

Oliy ta’lim muassasasi Kengashining qarori bilan bitiruvchi uchun belgilangan yakuniy davlat attestatsiyasining shakli bir o‘quv yili davomida o‘zgartirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi.

4. Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari Umumkasbiy fanlar (2.00)\* qatoriga kiruvchi «O‘zbekistonda davlat muassasalari tarixi» (2.01), «Jahon arxivlari tarixi» (2.03), «O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi» (2.04) hamda «Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti» (2.05), shuningdek, Ixtisoslik fanlari (3.00) hisoblanuvchi «Raqamli manbalar va elektron arxiv asoslari» (3.01) fanlari doirasida bo‘lib o‘tadi.

5. Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi ko‘rsatib o‘tilgan fanlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorgarligining mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablarida bitiruvchiga

---

\***Izoh:** O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirligining 2018-yil 25-avgustdaggi 744-soni buyrug‘i bilan tasdiqlangan 5220300 – Arxivshunoslik ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasidagi fanlar ro‘yxati bo‘yicha tartib raqami.

nisbatan nazarda tutilgan umumiy talablarga ham javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan.

6. YDA sinovlari o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda o'quv uslubiy boshqarma tomonidan tayyorlangan, o'quv ishlari bo'yicha prorektor tomonidan tasdiqlangan Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari jadvali asosida o'tkaziladi.

7. Yakuniy davlat attestatsiyasiga tegishli o'quv reja va fanlar dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

8. YDA sinovlari universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi davlat attestatsiyasi komissiya tomonidan nazorat qilinadi va baholanadi. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. Yakuniy davlat attestatsiyasida vasiylik kengashi, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va ota-onalar vakillari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

9. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining majlis bayoni rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

10. Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdag'i attestatsiya sinovlarida mualliflikni o'zlashtirishga (plagiatga) yo'l qo'yilmaydi. Bunday holat aniqlanganda davlat attestatsiya komissiyasi tomonidan bitiruvchiga tegishli attestatsiya sinovidan qoniqarsiz baho qo'yiladi yoki qo'yilgan ijobiy baho bekor qilinadi.

11. Fanlar dasturlarini o'zlashtirishda katta yutuqlarga erishgan va o'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida 3/4 qismi bo'yicha 86 ball va undan yuqori (5 baholik tizimda 5 baho (a'lo) o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan, (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 71 balldan (5 baholik tizimda o'zlashtirish

ko‘rsatkichi 4 bahodan (yaxshi) kam bo‘lmagan), shuningdek, yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari bo‘yicha kamida 86 ball (5 baholik tizimda 5 baho (a’lo) o‘zlashtirish ko‘rsatkichlariga ega bo‘lgan bakalavriat bitiruvchisiga “imtiyozli” diplom beriladi.

12. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o‘ta olmagan shaxs o‘qish muddati tugagandan so‘ng, arizasiga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi sinovini keyingi 3 yil davomida qayta topshirish huquqiga ega.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan o‘ta olmagan shaxs keyingi o‘quv yili boshlanganidan keyin yakuniy davlat attestatsiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berishni so‘rab oliy ta’lim muassasasi rektori nomiga ariza bilan murojaat qilishi mumkin. Bunda, shaxsga yakuniy davlat attestatsiya sinovini keyingi har bir o‘quv yilida (3 yil davomida) 2-martadan ortiq qayta topshirishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiya sinovini qayta topshirishga ruxsat berish oliy ta’lim muassasasi rektorining buyrug‘i bilan rasmiylashtiriladi.

13. Uzrli sabab bilan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kelmagan talabalar rektorning buyrug‘i bilan yakuniy davlat attestatsiya komissiyasining ishi yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o‘tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kiritilishi mumkin.

14. Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo‘yilgan bahodan norozi bo‘lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e’lon qilingan kundan e’tiboran uch kun muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadir. Apellyatsiya komissiyasi o‘z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma’lum qiladi.

15. Yakuniy davlat attestatsiya sinovlari jarayoni onlayn rejimda ovozli videotranslatsiya qilinadi hamda ushbu video tasvirlar 1 yil davomida mutaxassislik kafedrasida saqlanadi.

**ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan**

**UMUMIY TALABLAR**

**Bakalavrlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan umumiyl talablar:**

- dunyoqarash bilan bog‘liq tizimli bilimlarga ega bo‘lishi;
- gumanitar va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar asoslarini, joriy davlat siyosatining dolzARB masalalarini bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi;
- Vatan tarixini bilishi, ma’naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;
- tabiat va jamiyatda kechayotgan jarayon va hodisalar haqida yaxlit tasavvurga ega bo‘lishi, tabiat va jamiyat rivojlanishi haqidagi bilimlarni egallashi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asoslarda hayotda va o‘z kasb faoliyatida foydalana bilishi;
- insonning boshqa insonga, jamiyatga va atrof muhitga munosabatini belgilovchi huquqiy hamda ma’naviy mezonlarni bilishi, kasb faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;
- axborot yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lishi, o‘z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;
- tegishli bakalavriat yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi;
- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;
- sog‘lom turmush tarzi va unga amal qilish zaruriyati to‘g‘risida ilmiy tassavvur hamda e‘tiqodga, o‘zini jismoniy chiniqtirish o‘quv va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

**FANLARARO  
YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA**

**Joriy o‘quv yilida ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari quyidagi fanlar asosida o‘tkaziladi:**

1. O‘zbekistonda davlat muassasalari tarixi (2.01) – umumkasbiy fan;
2. Jahon arxivlari tarixi (2.03) – umumkasbiy fan;
3. O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi (2.04) – umumkasbiy fan;
4. Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti (2.05) – umumkasbiy fan;
5. Raqamli manbalar va elektron arxiv asoslari (3.01) – ixtisoslik fani;

**Fanlar bo‘yicha talabalarining bilimiga, ko‘nikma va malakasiga qo‘yiladigan talablar:**

**O‘zbekistonda davlat muassasalari tarixi fani bo‘yicha:**

- Davlat va davlat muassasalari tushunchasi. O‘zbekistonning davlat muassasalari tarixi fanining maqsad va vazifalari. Davlat muassasalarn tarixi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Davlatning asosiy belgilari va funksiyalari. Davlat muassasalari tarixi fanini o‘rganishning ahamiyati;
- O‘rta Osiyo hududida qadimgi davlat va davlat muassasalarining paydo bo‘lishi; O‘rta Osiyo hududida qadimgi davlat va davlat muassasalarining paydo bo‘lishi; Yunon-Baqtriya davlati va boshqaruv tartibi; Turk hoqonligining tashkil topishi. Turk hoqonligi tomonidan O‘rta Osivoni egallanishi. Turk hoqonligida boshqaruv tizimi; o‘rta asrlar va xonlik davrida boshqaruv tizimi; XIX-XXI asrda boshqaruvdagi o‘zgarishlarni bilishi;
- bakalavriat yo‘nalishiga mutanosib ravishda raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishi; yangi bilimlarni mustaqil egallay olishi, o‘z faoliyatini ilmiy asosda tashkil etishi va o‘zini kamolotga yetkazish ustida ishlay bilishi; ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli shaxslarga tegishli lavozimlarning bo‘sh o‘rinlarda mustaqil ishlay olish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi; bakalavriatning tegishli yo‘nalishi doirasida tanlangan ixtisoslik bo‘yicha magistratura oliy ta’limini davom ettirish malakalariga ega bo‘lishi kerak.

### **Jahon arxivlari tarixi fani bo‘yicha:**

- Insoniyat taraqqiyotida arxivlarning o‘rni va ahamiyati. Dunyoning zamonaviy arxivlari va ularning ahamiyati. “Jahon arxivlari tarixi” fanining maqsad va vazifalari. Fanning dolzarbligi, ilmiy va amaliy ahamiyati. Hozirgi zamon asosiy arxivlari va ularning hujjatlari. Asosiy adabiyot va manbalarni bilishi;
- Qadimgi davrda arxivlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Ilk arxivlarning paydo bo‘lishi va ularning tarixiy ahamiyati. Qadimda xo‘jalik arxivlarining paydo bo‘lishi. Davlatchilik shakllari va ularning arxivlari. Arxivdagi diplomatik yozishmalar va boshqa hujjat turlari. Ularning o‘rganilishi. Manbaviy ahamiyati. Qadimgi davlatlarda hujjatlarni yozib qoldirish texnologiyalari. Kohinlar arxivlari. Mesopotamiya qadimgi davlatlari (Shumer, Akkad, Babil, Ossuriya), Xett, Finikiya, Urartu va boshqa Qadimgi Sharq davlatlari arxivlari. Qadimgi Sharq davlatlaridagi hukmdorlar kutubxona-arxivlari. Qadimgi Sharq arxivlari (Bogazkoy va Quyunjiq arxivi hujjatlari) haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilish;
- Tarixiy davrlar mobaynida arxivlarda saqlanadigan materiallar mazmunidagi o‘zgarishlar. Arxiv ishini tashkil qilish, hujjatlarni jamlash, butlash, sharhlar tuzish va ulardan foydalanish tartibotidagi o‘ziga xos jihatlar – qiyosiy tahlil. Ispaniyada Simankas arxivining tashkil etilishi. Angliya qirollari arxivlari (Vestminstr, Tauer, Kapella) va yangi davr arxivlari, ularning faoliyatini tog‘ri anglash malakalariga ega bo‘lishi kerak.

### **O‘zbekistonda arxiv ishi tarixi fani bo‘yicha:**

- O‘zbekistonda arxivlarning paydo bo‘lishi jarayonlarini o‘rganish; xronologiyani o‘rganish usullarini; tarixiy tasavvurlar va tushunchalarni shakllantirish usullari; darslik va AKT bilan ishlash usulini; tarixiy hujjatlar bilan ishlash usullarini bilishi kerak;
- IX-XII asrlarda hukmron bo‘lgan sulolar davrida kutubxona arxivlarining shakllanishi. IX-XII asrlarda hukmron bo‘lgan sulolar davrida kutubxonalarining shakllanishi. Manbalardan ma’lumki, toxiriylar,

somoniylar, qoraxoniylar, g‘aznaviylar va xorazmshohlar saroylarida kutubxona arxivlarini bilishi;

- Xiva xonligi arxivi va uning o‘rganilishi. O‘rta Osiyo mintaqasida mavjud bo‘lgan Qo‘qon va Xiva xonliklari va Buxoro amirligida o‘ziga xos tarzda ish yuritish, hujjatchilik shu bilan birgalikda arxiv tizimini bilishi;
- Rossiyasi imperiyasi boshqaruvi davrida Turkistonda arxiv ishi va boshqaruv tartibi. Turkiston general-gubernatorligi kanselyariyasining tashkil etilishini bilishi;
- Turkiston ASSRda arxiv ishining tashkil etilishi. Arxivlarni markazlashtirish. Yagona davlat arxiv fondi (YADAF) faoliyati. Turkistonda arxivlarda ish yuritish; O‘zbekiston Respublikasida arxiv ishining tashkil qilinishi. Arxiv ishi to‘g‘risidagi qonunning mohiyati. O‘zbekistonda arxiv sohasini takomillashtirish borasida qabul qilingan huquqiy me’yoriy hujjatlar. O‘zbekistonda arxiv ishini takomillashtirish va uning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini bilishi kerak.

#### **Arxiv ishi nazariyasi va amaliyoti fani bo‘yicha:**

- Talabalar faning boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Arxiv sohasiga oid asosiy tushunchalar. Arxiv muassasasi, arxiv hujjati tushunchasining paydo bo‘lishi. Hujjatlarning turlari va ularni arxivlarga topshirish masalasi. Davlat arxivlari. Nodavlat arxivlari. Idoraviy arxivlar. Arxivlarning jamiyat hayotida tutgan o‘rni haqida ko‘nikmalarini hosil qila olish.
- Arxiv hujjatlari va yozuvlarini tuzishda qo‘llaniluvchi uslub va texnologiyalar evolyusiyasi. Arxiv ishining insoniyat faoliyatining boshqa sohalari bilan aloqadorligi bilishi;
- Arxiv huquqi atama va tushuncha sifatida. O‘zbekistonda arxiv ishini boshqarishning huquqiy asoslari. O‘zbekistonda arxiv ishi va uning huquqiy asoslari tarixi. Mustaqil O‘zbekistonda arxiv ishi nazariyasi va amaliyotining huquqiy asoslari: dastlabki bosqich (1991-2001 yy.) va ikkinchi bosqich (2001

yildan hozirgi kungacha). Arxiv ishi sohasida qabul qilingan O‘zR qonunlari va O‘zR Vazirlar Mahkamasi qarorlari bilishi;

- O‘zbekiston Milliy arxiv fondi (MAF) tushunchasi. O‘zMAFni shakllantirish. O‘zR Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 30-oktyabrdagi №482-sonli “Arxiv ishi bo‘yicha me’yoriy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” Qarori va unga 1-ilova qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi to‘g‘risida” Nizom. O‘z.R MAF tarkibiy bo‘limlari. O‘z.R MAFning davlatga tegishli arxiv fondi tushunchasi va uning hujjatlari. O‘z.R MAFning davlatga tegishli bo‘lmagan arxiv fondi tushunchasi va uning hujjatlari. SHaxsiy jamg‘arma fondlari hujjatlari. O‘z.R Vazirlar Mahkamasining №482-sodn Qaroriga qo‘sishimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risidagi 2006-yil 6-iyundagi 131-sonli Qarori. Arxiv turlari. Arxiv hujjatlari turlari. Hujjatlarni ro‘yxatga olish tartiblarini bilishi kerak;
- Arxivlarni butlash tartibi va uni amalga oshirish bosqichlari. Butlash manbai tushunchasi. Arxiv jamg‘armalarini butlash va tamoyillari. Hujjatlarni arxivlarda saqlashga tayyorlash va topshirish tartiblari. Hujjatlar qimmatdorligini aniqlashning maqsad va vazifalari. Hujjatlar ekspertezasini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlarini amaliyot jarayonida qo‘llay olish;

### **Raqamli manbalar va elektron arxiv asoslari fani bo‘yicha:**

- Elektron arxiv sohasiga oid asosiy tushunchalarni, O‘zbekiston Respublikasida elektron hujjat va elektron arxivlarni yaratish borasida qabul qilingan huquqiy-meyoriy hujjatlar bilishi kerak;
- Raqamli manbalarning kelib chiqish tarixi. Raqamli manbalarning turlari. Raqamli meros tushunchasi. Raqamli merosning manbaviy ahamiyati. Raqamli manbalarni turkumlashtirish muammolari bilishi zarur;
- Hujjatlarni raqamli shakliga o‘tkazish tartiblari. Disk, disket va flesh-kartalardan foydalanish. Elektron hujjatlarni idoraviy va davlat arxivlariga topshirishga tayyorlash. Arxiv hujjatlarini raqamlashtirish talablari bilishi kerak;

- Elektron arxiv hujjatlarini ekspertiza qilish tamoyillari. Elektron hujjatlarni saqlash tartiblari. Axborot resurslarining qimmatini ekspertiza qilish. Axborot resurslarining arxiv nusxalarini yaratish tartibi. Axborot resurslarining arxiv nusxalarini davlat arxivlariga topshirish tartibi. Alovida qimmatli hujjatlarni elektron nusxasini yaratish va ularni saqlash xonasiga qo‘yiladigan talablarini, Elektron arxiv hujjatlaridan foydalanish qoidalari. Elektron hujjat va ma’lumotlarni qidirib topish. Ma’lumotlarni boshqarish dasturi bilan ishlash. Axborot resurslaridan foydalanish. Axborot tizimlarining tarmoqlararo bog‘lanishi. Elektron hujjatlarga qayta ishlov berishga oid malakalarga ega bo‘lishi kerak.

**5220300 – Arxivshunoslik ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha fanlararo yakuniy davlat attestatsiya sinovi**

**MAVZULARI VA ULARNING MAZMUNI**

**O‘ZBEKISTONNNNG DAVLAT MUASSASALARI TARIXI**  
**FANI BO‘YICHA**

**O‘zbekistonnnng davlat muassasalari tarixi fanining maqsad va vazifalari.**

Davlat va davlat muassasalari tushunchasi. O‘zbekistonning davlat muassasalari tarixi fanining maqsad va vazifalari. Davlat muassasalari tarixi fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligi. Davlatning asosiy belgilari va funksiyalari. Davlat muassasalari tarixi fanini o‘rganishning ahamiyati.

**O‘zbekiston xududida qadimgi davlat muassasalarining vujudga kelishi.**

O‘rta Osiyo hududida qadimgi davlat va davlat muassasalarining paydo bo‘lishi. Davlat muassasalari faoliyati. Oqsoqollar kengashi. Ilk harbiy-demokratik boshqaruv. "Avesto" - O‘rta Osiyo va O‘zbekistonning qadimiy tarixi va boshqaruviga oid ilk yozma manba. "Avesto" qismlari: Yasna (qurbanlik - duolar yoki qurbanlik keltirish). Yasht ("qadrlash" ulug‘lash - ma’budalar uchun madhiyalar) Videvdat ("devlarga qarshi kurash"), Visparat ("barcha hukmdorlar"). "Avesto"da jamiyatni idora qilish tizimi. "Avesto"da patriarchal oila urug‘chilik jamoasi hududiy urug‘chilik jamoasi, qabila va qabilalar ittifoqi.

**Ahamoniylar davrida O‘rta Osiyoda davlat boshqaruvi.**

Qadimgi Baqtriya, Xorazm, So‘g‘diyona va Marg‘iyona davlatlari. Sak-massageget qabilalari birlashmasi. Ahamoniylar sulolasini davrida davlat muassasalari. O‘rta Osnyo hududidagi qadimgi davlatlarning Ahamoniylar tomonidan bosib olinishi. Satrapliklarda boshqaruv tizimi. Satrapliklardan soliq undirilishi. Qadimgi Baqtriya, Xorazm, So‘g‘diyona va Marg‘iyona davlatlarida savdo aloqalari. Behistun qoyatosh yozuvlari va Yunon rim tarixchi olimlarining qadimgi davlatlar haqidagi ma'lumotlari. Ahamoniylar sulolasini boshqaruvi davrida satrapliklarda devonxona faoliyati. Ahamoniylar sulolasini boshqaruvinnng ijtimoiy – siyosiy mohiyati.

## **Qadimgi Qang‘ va Dovon davlatlarida davlat muassasalar tizimi.**

Qadimgi Qang davlati. Qang‘ davlatining bilan munosabatlarn. Qang‘ davlatining boshqaruv tizimi. Qang‘ davlatida oqsoqollar kengashi (oliy kengash). Qadimgi Dovon (Farg‘ona) davlati. Dovon davlatida davlat boshqaruv tizimi. Qadimgi Qang‘ va Dovon davlatlarida mudofaa tizimi.

## **Yunon-makedon va Salavkiylar boshqaruvi davrida davlat muassasalari.**

O‘rta Osiyo xududida Yunon - makedon qo‘sishinlarining bostirib kirishi va unga qarshi kurash. Ellin madaniyatining kirib kelishi. Yunon-makedon istilosini davrida boshqaruv tizimi. Salavkiylar davlati. Salavkiylar davrida davlat boshqaruvi. Aleksandr Makedonskiyning davlatni boshqarish usuli. Yunon-makedon va Salavkiylar davrida satrapliklardan soliqlarni yig‘ib olish tartibi. Yunon-makedon va Salavkiylarning ijtimoiy- siyosiy mohiyati.

## **Yunon-Baqtriya va Kushon davlatida davlat muassasalari.**

Yunon-Baqtriya davlati va boshqaruv tartibi. Yunon- Baqtriya davlatining harbiy harakatlari. Kushon podsholigi. Kushon podsholigida boshqaruv tartibi. Kushon podsholigi madaniyati. Yunon- Baqtriya va Kushon podsholigi boshqaruvi ijtimoiy- siyosiy mohiyati.

## **Afrig‘iylar, Xioniylar, Kidariylar va Eftallar davlat boshqaruvi tarixi.**

Afrig‘iylar davlatining tashkil topishi. Afrig‘iylar sulolasini davrida davlat muassasalari Afrig‘iylar sulolasini davrida Xorazmnning tashqi aloqalari. Xioniylar davlati. Xioniylar hukmronligi davrida davlat muassasalari tarixi. Kidariylarning O‘rta Osiyoga kirib kelishi. Kidariylar davlat boshqaruvi. Eftallarning O‘rta Osiyoga kirib kelishi. Eftallar davlati. Eftallar xukmronligi davrida davlat muassasalari. Eftallar tashqi aloqalari. Eftallar davlatining ma’muriy hududiy tuzilishi.

## **Turk hoqonligida davlat boshqaruvi tizimi.**

Turk hoqonligining tashkil topishi. Turk hoqonligi tomonidan O‘rta Osiyoni egallanishi. Turk hoqonligida boshqaruv tizimi. Turk hoqonligining ikkiga bo‘linishi.

G‘arbiy turk hoqonligi. Boshqaruv tartibi. Turk hoqonligi davrida maxalliy boshqaruv. So‘g‘dda mahalliy hokimliklarning tashkil topishi va boshqaruv tartibi. Toxaristonning ma’muriy xududiy tuzilishi va boshqaruv tartibi. CHoch va Eloq davlati Turk hoqonligi davrida. CHoch davlatining boshqaruv tartibi. G‘arbiy turk hoqonligi davrida maxalliy hokimliklarining tashqi aloqalari. Turk hoqonligida boshqaruvnning ijtimoiy-siyosiy mohiyati. G‘arbiy turk hoqonlgida To‘nyabg‘u (618-630) davrida boshqaruv tartiblarinnng isloh qilinishi.

### **O‘rta Osiyoning arab xalifaligining boshqaruvi davrida davlat muassasalari tarixi.**

Arab xalifaligining tashkil topishi. Arablarning istilochilik harakatlari. Arablar tomonidai O‘rta Osiyoning bosib olinishi. Arab xalifaligi davrida O‘rta Osiyoda davlat muassasalari. Arab xalifaligida devonlar faoliyati. Arab xalifaligida qonunchilikni amalga oshiruvchi unvonlar. Arab xalifaligi boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy mohiyati. O‘rta Osiyolik allomalar tomonidan davlat boshqaruviga oid yozilgan asarlar.

### **Somoniylar davrida davlatni boshqaruv muassasalari.**

Somoniylar davlati. Somoniylar davlatida boshqaruv tizimi. Somoniylarda davlat muassasalari. Somoniylar davlatida dargox (amir saroyi) faoliyati. Somoniylar davlati devoni Somoniylar davlatida mudofaa tizimi va harbiy unvonlar. Somoniylar davlat boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy mohiyati.

### **Toxiriylar davlatida boshqaruv idoralari.**

Toxiriylar davlati. Toxiriylar davlatida davlat boshqarovi va davlat muassasalari tizimi. Safforiylar davlati. Safforiylar davlatida davlat muassasalari faoliyati. Safforiylarda davlat boshqaruv titimi. Toxiriylar va Safforiylar davlatlari boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy mohiyati.

### **G‘aznaviylar davlat boshqaruvi tizimi.**

G‘aznaviylar davlatiniig tashkil topishi. G‘aznaviylar davlatida boshqaruv tizimi. G‘aznaviylar davlatida davlat muassasalari tizimi. G‘aznaviylar davlatida

dargox, devon, mudofaa va sud tizimi. G‘aznaviyilar davlati boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy mohiyati. Davlat boshqaruviga oid asarlar.

### **Saljuqiylar davlat boshqaruvi tarixi.**

Saljuqiylar davlati va uning boshqaruv tizimi. Saljuqiylar davlatida davlat muassasalari va devoni. Saljuqiylarda sud tizimi. Saljuqiylar davlati boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy mohiyati. Saljuqiylar sulolasasi davrida davlat boshqaruviga oid asarlar.

### **Qoraxoniylar davrida boshqaruv idoralari.**

Qoraxoniylar davlati. Qoraxoniylar davlatining boshqaruv tizimi. Qoraxoniylar davlatida davlat muassasalari tizimi. Qoraxonilar davlatida dargoh va devon faoliyati. Qoraxoniylarda sud tizimi. Qoraxoniylar davlati boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy mohiyati. Qoraxoniylar sulolasasi davrida davlat boshqaraviga oid asarlar.

### **Xorazmshohlar davlat boshqaruvi tartibi.**

Korazmda Mamuniylar sulolasasi hukmronligi. Mamuniylarda davlat boshqaruvi. Mamuniylar sulolasasi boshqaruvi davrida davlat muassasalari Xorazmda Anushtegiylar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Xorazmshohlar davlati va boshqaruvi tizimi. Xorazmshohlar davlatida dargoh faoliyati. Xorazmshohlar davlati devoni. Xorazmshohlar davlati boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy mohiyati.

### **Mo‘g‘ullar istilosi va Chig‘atoy ulusi davrida davlat boshqaruvi tartibi.**

Mo‘g‘ullarning O‘rta Osiyoni istilo etishi. CHig‘atoy ulusi. Mo‘g‘ullar davrida O‘rta Osiyoda davlat muassasalari. CHig‘atoy ulusida davlat boshqaruvi va Ma’sudbekning pul islohoti. Kebekxon va uning islohotlari. Tumanlar tizimi va ularning boshqaruvi. CHig‘atoy ulusning ikkiga bo‘linishi.

### **Amir Temur davlatida boshqaruv tizimi. Temur tuzuklari.**

Amir Temurming siyosiy kurash maydonga kirib kelishi. Amir Temur - markazlashgan davlat asoschisi. Amir Temur sultanatining ma’muriy tuzilishi. Amir Temur davlatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari. Amir Temur davlat boshqaruvi.

Amir Temur sultanatida xavfsizlik xizmati. Temur tuzuklari. Amir Temur - mohir diplomat.

### **Temuriylar sulolasi davrida davlat muassasalari faoliyati.**

Temuriylar sulolasi davrida davlat boshqaruvi. Temuriylar davrida davlat muassasalari. Temuriylar davlatining siyosiy tuzimi. Temuriylarda dargox faoliyati. Temuriylar davlati devoni xususida. Temuriylar davrida mahalliy hokimiyat. Temuriylar davri davlat boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy mohiyati.

### **Buxoro xonligi (shayboniylar sulolasi) davlat boshqaruv tarixi.**

Shayboniylar sulolasining hokimiyatga kelishi. Buxoro xonligining tashkil topishi. Shayboniylar davrida davlat boshqaruvi. Shayboniylar sulolasi davrida davlat muassasalar tizimi. Dargoh faoliyati. Shayboniyxon o'tkazgan islohotlar. Abdullaxon II ning davlat boshqaruvi va islohotlari Shayboniylar davrida sud ishlarini boshqarish tizimi Shayboniylar sulolasi boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy mohiyati Shayboniylar davrida davlat boshqaruviga oid manbalar.

### **Ashtarxoniylar sulolasi davrida boshqaruv tartibi.**

Ashtarxoniylar sulolasi davrida davlat boshqaruvi va davlat muassasalari faoliyati. Ashtarxoniylar davrida markaziy va mahalliy boshqaruv organlari. Dargoh va devonlar faoliyati. Ashtarxoniylar davrida islohotlar. Ashtarxoniylar sulolasi boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy mohiyati

### **Buxoro amirligida davlat muassasalari.**

Mang'itlar sulolasining hokimiyat tepasiga kelishi. Buxoro amirligi ma'muriy-xududiy tuzilishi. Buxoro amirligida davlat boshqaruvi va davlat muassasatari tizimi. Buxoro amirligida dargoh faoliyati. Amirligi devoni xususida. Mang'it hukmdorlar o'tkatgan islohotlar. Buxoro amirligida sud ishlari. Buxoro amirligida boshqaruvning ijtimoiy-siyosiy mohiyati.

### **Xiva xonligida davlat muassasalari tizimi.**

Xiva xonligida davlat muassasalar tizimi. Xiva xonligi devoni. Xiva xonligida harbiy-mamuriy hokimiyat. Xiva xonligida sud davlat muassasalari. Xiva xonligida

qo‘ng‘irotlar sulolası. Qo‘ng‘irotlar sulolası davrida davlat boshqaruvi. Maxsus kengash tarkibi va faoliyati.

Qoraqalpoqlarda mahalliy boshqaruv tizimi. Xiva xonligida boshqaruvining ijtimoiy-siyosiy mohiyati. Davlat boshqaruviga oid asarlar.

### **Qo‘qon xonligining davlat muassasaları tarixi.**

Qo‘qon xonligining idoraviy boshqaruv tizimi. Davlat muassasalar tarixi. Qo‘qon xonligida markaziy va mahalliy boshqaruv. Harbiy va diniy boshqaruv. Qo‘qon xonligida sud tizimi. Qo‘qon xonligida boshqaruvning ijtimoiy-siyosiy mohiyati. Toshkent hokimligi. Toshkent hokimligi boshqaruv tizimi. Xonlikda davlat boshqaruviga oid manbalar va adabiyotlar.

### **Rossiya imperiyasi tomonidan O‘rta Osiyon bosib olinishi va boshqaruv tizimining shakllanishi.**

Rossiya imperiyasi tomonidai O‘rga Osiyo xonliklarining bosib olinishi. Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tizimining o‘rnatalishi. Turkiston viloyatining tashkil topishi. Turkistonda mustamlaka davlat muassasalarining tashkil etilishi. “Turkiston viloyatini boshqarish to‘g‘risidagi Muvaqqat Nizom”ning qabul qilinishi va davlat muassasalarini boshqarishda qo‘llanishi (1886 yil 6 avgust). Mahalliy aholi ustidan nazorat qilish tartiblari. “Davlat komissiyasi”ning tuzilishi (1865 y). “Dasht komissiyasi”ning Rossiya imperiyasi tomonidan o‘lkani boshqaruv tizimini takomillashtirishdagi o‘rni.

### **Turkiston general-gubernatorligining boshqaruv tizimi.**

Rossiya imperiyasi hukumati tomonidan “Turkiston genaral gubernatorligining tashkil etish to‘g‘risida”gi Qarorining qabul qilinishi (1867 yil 11 iyul). Turkistonda ma’muriy-siyosiy boshqaruv tizimining joriy qilinishi va uning musgamlakachilik xususiyatlari. “Turkiston boshqaruvi bo‘yicha” yangi Nizom loyihalarining ishlab chiqilishi va amaliyatga joriy qilinishi. Turkiston general-gubernatorligida markaziy davlat muassasalari. Markaziy va mahalliy boshqaruv.

## **Turkiston general-gubernatorligi devonxonasi va Kengashi faoliyati.**

Turkiston general-gubernatorining dsvonxonasining tashkil etilishi (1867 yil). Devonxona bo‘limlari va ularda jamlangan hujjatlar. Turkiston general-gubernatorligi devonxonasining Turkiston Muvaqqat hokimiyati komiteti devonxonasiga aylantprilishi. Turkiston general- gubernatorligi Kengashining tashkil etilishi (1886 yil 12 iyun). Kengash tarkibi va faoliyati. Kengashning tugatilishi.

## **Turkiston o‘lkasining mamuriy-hududiy bo‘linishi va viloyatlar boshqaruvi.**

Turkiston general-gubernatorligining dastlabki mamuriy-hududiy bo‘linishi. Gsneral-gubernatorligi hududining kengaytirilishi. Turkiston general-gubernatorligi viloyatlari boshkaruvidagi o‘ziga xos xususiyatlar. Viloyat boshqaruvi lavozimlari. Harbiy gubernator, viloyat boshlig‘i, bo‘lim boshlig‘i, uezd boshlig‘i, otryad boshlig‘i, volost boshlig‘i va boshqalar.

## **Rossiya imperiyasi davrida mahalliy boshqaruv.**

Rossiya imperiyasi mustamlakaligi davrida O‘rta Osiyoda mahalliy davlat boshqaruvining o‘ziga xosliklar. Buxoro amirligining qaram davlatga aylangirilishi. Rossiya imperiyasi va Buxoro amirligi o‘rtasida “Do‘stlik shartnomasi” tuzulishi va uning mahalliy davlat boshqaruvi tizimiga tasiri (1873 yil 28 ssntyabr). Mustamlaka davrida Buxoro amirligining davlat boshqaruvi: amir saroyi xizmati va davlat ma’muriy boshqaruvt. Ma’muriy boshqaruvi organlari: davlat devonxonasi, moliya-soliq organi. diniy sud organi-qozixona, nazorat organi. Rossiya va Xiva o‘rtasidagi kelishuv shartnomasining tuzilishi (1873 yil. 12 fevral) Mustamlaka davrida Xiva xonligning davlat boshqaruvi. Mazkur davrda Xiva xonligi davlat muassasalari.

## **Turkistonda sud va harbiy olitsiya tizimi tartiboti.**

1867-yilgi “Muvaqqat Nizom”da Turkistonla sud ishi masalasining aks etishi. Turkistonda sud tizimining o‘ziga xosliklari: harbiy sud va halq sudlari. 1886 yilgi “Nizom”da Turkistonda sud masalasining aks etishi: sudlov patatasi, okrug sudlari,

qo'shimcha mirovoy (sulhparvar) sudlar, sud'yalar, faxriy mirovoy sudyalar. Maxalliy aholi sudlari: halq sudlari, qozilar.

Turkistonda mustamlaka boshqaruvi yani. "harbiy-xalq boshqaruvining" o'rnatilishi. Mazkur boshqaruvning "ma'muriy politsiya boshqaruvi" yoki "harbiy-politsiya boshqaruvi" ga o'zgartirilishi. Harbiy politsiya tartibotini o'ziga xosliklari. O'lkani ruslashtrishga qaratilgan harakatlar va ularning natijasi.

### **Toshkent shahar dumasi faoliyati.**

Toshkent shahar Dumasining vujudga kelishi (1877-yil). Harbiy gubernator boshchiligidagi maxsus xay'atga saylov o'tkazilishi sabablari. Saylov shartlari. Toshkent shahar Dumasi faoliyati. Dumaga mahalliy aholi vakillarining saylanishi va undan ko'zlangan maqsad.

### **Qoraqalpoqlar turkiston general-gubenatorligi tarkibida.**

Qoraqalpoqlar Turkiston general-gubernatorligi tarkibiga qo'shilishi. Gandimyon shartnomasi (1873-yil). Amudaryo bo'limining tashkil etilishi (1874-yil) Amudaryo bo'limining Sirdaryo viloyati tarkibiga qo'shilishi. Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida qoraqalpoqlar uyushmalari: biylar maslahatlari, o'n to'rt urug', qo'ng'irot arisi. Oqsoqollar Kengashining mahalliy davlat boshqaruvida tutgan o'rni. Qoraqalpoqlar ijtimoiy tizimida urug'-qabila an'analari. XIX asrning ikkinchi yarmi XX asr boshlarida qoraqalpoqlardagi asosiy ma'muriy mansablar: og'abiy, biy, julbasi, mahram (zakot yig'uvchi), mirob, qozi, rais va boshqalar.

### **XX asr boshlarida jadidlarning milliy demokratik davlat qurish g'oyalari.**

XX asr boshlarida Turkistondagi davlat muassasalari. Birinchi jahon urushi davrida davlat boshqaruvi. Davlat muassasalari. Ijtimoiy tashkilotlarning tashkil etilishi. Ijtimoiy tashkitotlarni boshqarish masalalari. XX asr boshlarida jadidlar harakatining vujudga kelishi. Jadidlarning milliy demokratik davlat qurish g'oyalari va bu boradagi harakatlari. M. Behbudiyning "Turkiston madaniy muxtoriyati loyihasi". Jadidchilik harakati vakillari tomonidan tashkil etilgan partiyalar. Ularning milliy demokratik davlat qurish yo'lidagi harakatlari.

## **Turkistonda sovet hokimiyatining zo‘rlik bilan o‘rnatalishi. Turkiston muxtoriyati**

1917-yil fevral voqealari. “SHo‘roi Ulamo” faoliyati. Turkistonda Muvaqqat hokimiyat Davlat dumasi. Musulmon qurultoylarining davlat muassasalarini tashkil qilinishidagi ahamiyati. 1917-1924 yillarda Turkiston davlat muassasalarini. Sovet davlat muassasalarini shakllantirilishi. Turkiston o‘lkasi xalq komissarlarini Soveti (1917-yil 15-22 noyabr). Turkiston muxtoriyati (1917-yil 28-novembr ) Turkiston Milliy Majlisi.

### **Turkistonda sovetlar boshqaruvi tizimini mustahkamlanishi va boshqaruv idoralari.**

Turkistonda sovetlar boshqaruvi tizimining mustahkamlanishi. Turkistonda sovet davlat muassasalarini. Turkiston Avtonom Sovet Respublikasi (TASSR) ning tashkil etilishi (1918 yil 30 aprel). Xalq komissariyatlarini tizimi. TASSRning oliy davlat organlari: Turkiston Markaziy Ijroiya Komiteti. Turkiston Xalq Komissarlarini Soveti. Turkistonda o‘lka konferensiyaning o‘tkazilishi. TASSR konstitutsiyasining qabul qilinishi (1918 yil). Mazkur Konstitutsiyasida davlat muassasalarini boshqarish tizimining yaratilishi. Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasining ta’sis etilishi (1921 yil, 11 aprel) va davlat muassasalarini.

### **Xorazm xalq sovet respublikasini davlat boshqaruvi.**

Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (XXSR)ning tashkil etilishi (1920 yil. 26-30 aprel) XXSR Konstitutsiyasining qabul qilinishi va unda davlat boshqaruvi organlari tizimi masalasi. XXSR davlat oliy hokimiyat va boshqaruvi organlari, mahalliy organlar.

### **Buxoro xalq sovet respublikasini davlat boshqaruvi organlari.**

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi (BXSR)ning tashkil etilishi (1920-yil 6-8 oktyabr). BXSR Konstitutsiyasining qabul qilinishi (1921-yil 18-23 sentyabr) va unda davlat boshqaruvi organlari tizimi masalasi BXSR davlat oliy hokimiyat va

boshqaruv organlari, mahalliy organlar. Davlat hokimiyatining qonun chiqaruvchi oliy organi. Maxalliy hokimiyat organlari.

### **Sovet tuzimiga qarshi qurolli kurash. Turkiston (Farg‘ona) muvaqqat muxtoriyatining tuzilishi va faoliyatি.**

Turkiston muxtoriyatining zo‘rlik bilan tugatilishi. Farg‘ona vodiysida milliy istiqlolchilik harakatining vujudga kelishi. Farg‘onada butun qo‘rboshilarining birinchi Qurultoyining chaqirilishi (1918-yil mart oyining oxirlari). Qarshilik harakatining keng tarqalishi. Farg‘ona viloyatida ko‘rboshilarining navbatdagi Qurultoyining chaqirilishi va unda ko‘rilgan davlat boshqaruvi masalalari (1920-yil 3-may). Turkiston muvaqqat hukumatining tuzilishi va faoliyati. Samarqandda Turkiston musulmonlarining ikkinchi Qurultoyining o‘tkazalishi (1922-yil. 1-20 aprel) va unda ko‘rilgan masalalar.

### **1920-1930 yillarning ikkinchi yarmida O‘zbekistonda davlat boshqaruvi organlari.**

O‘rta Osiyoda milliy-xududiy chegaralanish va davlat muassasalari. Oliy davlat boshqaruvi organlari va ijroiya organlar. 1920-1930 yillarning ikkinchi yarmida O‘zbekistonda davlat muassasalarini boshqaruv tizimi. Davlat muassasalari. Oliy davlat muassasalari. Maxalliy davlat muassasalari. 1927-yildagi Konstitutsiyasi va davlat boshqaruvi tizimi. 1937-yildagi Konstitutsiyasida davlat boshqaruvi masalalari. Stalinizm. Stalinizmniig O‘zbekiston davlat muassasalar tizimiga ta’siri. Sovet davrining davlat ma’muriy-buyruqbozlik tizimining shakllanishi.

### **Ikkinci jahon urushi davrida davlat boshqaruvining xususiyatlari.**

Ikkinci jahon urushi davrida davlat muassasalar faoliyatining xususiyatlari jihatlari. O‘zbekiston xudidiga Fanlar Akademiyasi tizimidagi davlat muassalarining ko‘chirilishi. Ta’lim va ilm-fan sohasidagi davlat muassasalari faoliyati.

## **1945-1980 yillarla O‘zbekistonda davlat boshqaruvi muassasalari.**

Urushdan keyingi yillarda O‘zbekiston davlat muassasalari. Oliy Kengash Xalq komissarliklarining vazirliklarga aylantirilishi. Davlat boshqaruvi tizimida davlat qo‘mitalari, boshqarmalar va komissiyalar. Davlat qo‘mitalari va ularning vazifalari.

## **1989-1990 yillarda davlat boshqaruvidagi siyosiy islohatlar. O‘zbekistonda president institutining tashkil etilishi.**

1985-1990 yillardagi islohotlar va ularning davlat muassasalari faoliyatiga ta’siri. 1989-1990 yillardagi siyosiy islohotlar. Mustaqillik deklaratsiyasining qabul qilinishi. O‘zbekistonda Prezident institutining tashkil topishi (1990-yil). Prezident vakolatlari. Vazirlar Mahkamasi faoliyati.

### **Mustaqil O‘zbekistonda yangi hokimiyat tizimining shakllanishi.**

O‘zbekiston davlat mustaqilligini e’lon qilinishi. Mustaqilik Deklaratsiyasi. “O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”gi qonun. Mustaqillik to‘g‘risida referendum. O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi demokratik tuzumi.

### **O‘zbekiston Respublikasida prezident boshqaruvi**

O‘zbekistonda Prezidentlik boshqaruvining ta’sis etilishi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining saylashning asosiy prinsiplari. O‘zbekiston Prezidenti saylovi. “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi to‘g‘risida”gi Qonun. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatlari. Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti. O‘zbekiston Prezidentining Konstitutsiyaviy maqomi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining huquq va majburiyatları.

### **O‘zbekiston Respublikasi parlamenti - Oliy Majlisning tashkil etilishi.**

Parlament tushunchasi. O‘zbekistonda 1990-1994 yillarda Qonun chiqaruvchi hokimiyat organi Oliy Kengash faoliyati. Parlament shakllantirishning konstitutsiyaviy huquqiy asoslari. O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi to‘g‘risida”gi Qonun. Oliy Majlisga saylovlar. Oliy

Majlisning tuzulishi. Oliy Majlis qo‘mitalari faoliyati. “O‘zbskiston Respublikasida deputatlarning maqomi to‘g‘risila”gi Qonui. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining inson huquqlari bo‘yicha vakil (ombudsman) faoliyati. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonui ijodkorligi. Ikki palatali parlament tizimi. O‘zbekiston Respublikasida Parlamentar boshqaruv. Senatning tashkil topishi. Deputatlar Qonun chiqaruvchi palatasi va uning faoliyati.

### **Ijro etuvchi hokimiyat - O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va uning tuzilishi.**

Ijro etuvchi hokimiyat tushunchasi. Vazirlar Mahkamasi faoliyati. O‘zbekiston Respublikasi ijro etuvchi hokimiyatining markaziy davlat muassasalari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining vazifalar va vakolatlari. Vazirlar Mahkamasining raisi va uning vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasi Vazirliklari. O‘zbekiston Respublikasi davlat qo‘mitalari. Davlat muassasalar tizimida agentliklar. “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risida”gi Qonun. Boshqaruv tizimidagi islohotlar.

### **O‘zbekistonda sud va sudlov hokimiyati.**

O‘zbskiston Respublikasi sud hokimiyati tizimi “Sudlar to‘g‘risida”gi Qonun. Konstitutsiyaviy sud va uning vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy xo‘jalik sudi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ularning faoliyati. Advokatura. O‘zbekiston Respublikasida mudofaa tizimi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari. Harbiy mansab va unvonlar.

### **Mahalliy davlat hokimiyati idoralarining tuzilish tartibi va faoliyati.**

Mahalliy davlat hokimiyatining tashkil topishi. “Maxalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonun. “Xalq vakillari viloyat, tuman, shahar Kengashiga saylovlar to‘g‘risida”gi Qonun. O‘zbekiston Respublikasida maxalliy ijroiya hokimiyati organi. Hokimliklarning tashkil etilishi. Xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar kengashlari faoliyati. Mahalliy hokimiyat organlari vakolatlari va vazifalari. Xalq hokimiyatchiligi. Hokimiyatni davlat idoralari orqali amalga oshirilishi.

Hokimlarning majburiyatları va vazifalari. Mustaqil O‘zbekistonda davlat hokimiyatining maxalliy organlar tizimidagi muassasalar faoliyati.

### **Siyosiy partiylar, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari faoliyati.**

O‘zbekiston Respublikasida siyosiy partiyalarni shakllantirishning huquqiy asoslari. Siyosiy partiyalarning tuzilishi va ularning vakolatlari. “Siyosiy partiylar to‘g‘risida”gi Qonun. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati. Jamoat tashkilotlari. Jamoat tashkilotlarini shakllantirishning huquqiy asoslari. Siyosiy partiylar tuzish va ular faoliyat ko‘rsatish prinsiplari. Ijtimoiy harakatlar. Kasaba uyushmalar. Ijodiy uyushmalar. Diniy uyushmalar. Jamoatchilik. Xayriya va boshqa fanlar faoliyati. Ommaviy axborot vositalari faoliyati.

### **Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarish organlarining tashkil etilishi.**

Mahalliy o‘zini-o‘zi boshqarishning tashkil etilishi. O‘zini-o‘zi boshqarishning huquqiy asoslari. Mahalla institutining tuzilishi. “Mahalla” xayriya jamg‘armasining tuzilishi. O‘zini-o‘zi boshqarish organlarini vakolatlari va faoliyati. Fuqarolar yig‘inlarini chaqirish tartibi. Oqsoqol (rais) vazifalari va roli.

## **JAHON ARXIVLARI TARIXI FANI BO‘YICHA**

### **“Jahon arxivlari tarixi” fanining predmeti, obyekti, maqsad va vazifalari**

Insoniyat taraqqiyotida arxivlarning o‘rni va ahamiyati. Dunyoning zamonaviy arxivlari va ularning ahamiyati. “Jahon arxivlari tarixi” fanining maqsad va vazifalari. Fanning dolzarbligi, ilmiy va amaliy ahamiyati. Hozirgi zamon asosiy arxivlari va ularning hujjatlari. Asosiy adabiyot va manbalar.

### **Qadimgi Sharqda arxivlarning vujudga kelishi va rivojlanishi**

Qadimgi davrda arxivlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi. Ilk arxivlarning paydo bo‘lishi va ularning tarixiy ahamiyati. Qadimda xo‘jalik arxivlarining paydo

